

**O'ZBEKISTON SSR FANLAR AKADEMIYASINING TASHKIL ETILISHI VA UNING
FAOLIYATI**

Xasanov Sharofidin Shayhidinovich
Samarqand Shahar Ichki Ishlar Vazirligi
akademik litseyi o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ikkinchi jahon urushi davrida O'z FA ning tashkil etilishi, unda faoliyat yuritgan olimlarning ilmiy ishlanmalari, yangi turdag'i o'quv jarayonlarining tashkil etilishi hamda ilm-fanni mudofaa manfatlariga moslashtirish jarayonlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: O'z FA, front, geologiya, geslar kaskadi, xalq maorifi, seleksioerlar faoliyati, olimlar jamiyati, fan doktorlari.

Annotation: This article describes the establishment of Uz AS during the Second World War, the scientific developments of the scientists who worked in it, the organization of new types of educational processes, and the processes of adapting science to the interests of defense.

Key words: AS, front, geology, Geslar cascade, public knowledge, activity of breeders, society of scientists, doctors of science.

O'zbekiston olimlari urush yillarda fan, texnika va madaniyat arboblarida fashist bosqinchilarga qarshi butun millatning kurashini o'z faoliyatida ham aks ettirdi. Urush ayniqsa jamoatchilik orasida fanning ahamoyatini behad oshishiga olib keldi. Chunonchi, mamlakatning ilmiy-texnikaviy jihatdan hamda iqtisodiy va madaniy quvvatini, harbiy harakatlarni moddiy ta'minlab turish, askarlardagi jangovarlik kayfiyati va salomatligi ko'p tomonlama fan rivojlanish darajasiga, ilmiy-texnikaviy islohotning natijadorligi va harbiy xizmatning salohiyatliliqi bilan aniqlanadi. Ushbu sinovli yillarda mamlakatdagi fan o'zining samarador quvvatini to'la hajda namoyon etdi, uning namoyondalari dushman ustidan zafarni ta'minlash borasida aktiv ishtirot etdi. Mamlakat ziylilari fashistik agressiyani sindirish borasida nafaqat moddiy resurslar, shu jumladan mamlakatning ma'naviy salohiyatini ham safarbar qilishda ko'p tomonlama o'z hissalarini qo'shdi. Mudofaa xarakteridagi fundamental ziddiyatlarni muvaffaqiyatli hal qilish mamlakatda yaratilgan sanoat quvvatiga, hatto urushdan oldingi yillarda ham takomillashib kelayotgan fundamental ilmiy-texnologik tadqiqotlarga asoslanardi.

Tabiiyki urush ilmiy ishlarning tinch yo'nalishini o'zgartirib boradi. Bunda mudofaa maqsadidagi muhim ilmiy faoliyatlarning samaralarini tezlik bilan ishlab chiqarishga joriy qilish, fan hamda amaliyot orasidagi uzviylikni yanada mustahkam qilish, ilmiy-tadqiqot ishlarini boshqarishning operativ usullarini rivojlantirish vazifasi qo'yiladi.

Urush daxshatlari boshlanishi bilan mamlakatning serg'ayrat ziylilari – T. N. Qori-Niyozov, Chikrizov, Kanash, Avtonomov, V. I. Romanovskiy, I. A. Raykova, T. A. Sarymsakov, Sh. T. Talipov va ular qatoridagi boshqa olimlar matbuotda chiqish oshirdilar. Ushbu chiqishda bunday deyilgandi: "Biz, O'zbekiston fan xodimlari, qonxo'r fashistik bosqinchilarning Vatanimizning muqaddas sarhadlariga, sovet xalqining sha'ni va erkinligiga qo'pollik bilan bostirib kirganidan g'azablangan holda, bor kuchimizni berishga to'la tayyorligimizni bildiramiz. bilim, kuchimiz va kerak bo'lsa, shafqatsiz dushman ustidan g'alaba qozonish uchun hayotimiz ..." [1]

Ilmiy-tadqiqot ishlarini integratsiya qilish uchun 1940-yilda tashkil etilgan SSSR Fanlar akademiyasining O'zbekistondagi bo'limi tomonidan amalga oshirilib borildi. Dastlabki vaqtarda O'zFAN tarkibi Geologiya instituti, Energetika instituti, Botanikaga ixtisoslashgan institut hamda tuproqshunoslik instituti, Til, adabiyot hamda tarix institutlari, Iqtisodiy tadqiqotlar bilan shug'ullanuvchi byuro, Fizika-matematika bo'limi va boshqa ilmiy bo'limlardan iborat edi.

1940-yildayoq SSSR FAning O'zbekiston filiali, respublikada faoliyat ko'rsatib turgan jami 75 ta ilmiy-texnik bo'lim, shu bilan birgalikda, 25 dona ilmiy-tadqiqot instituti, 23 ta ilmiy stansiyalar va va shu kabilar mamlakat xo'jalik hayotini harbiy izga solishga aloqador bo'lgan muammoli holatlarni yechimini topishga safarbar qilindi. Zavodlar, korxonalar, fabrikalar, temiryo'llar, avtomobillar yo'llari transport korxona-muassasalar bilan birgalikda integratsiya tashkil qilindi. Ushbu muassasalar xodimlarining tadqiqot ishlanmalarini muvofiqlashtirish niyatida 1941-yil 29-noyabrda O'zbekiston Ilmiy muhandis-texnika jamiyati tashkil etildi. G'arbiy mintaqalardagi katta shaharlardan yuzlab ilmiy muassasalar va tashkilotlar O'zbekiston SSRGa ko'chirib kelindi. SSSR FAning tarix, iqtisodiyot va huquq, jahon xo'jaligi va jahon siyosati, sharqshunoslik, jahon adabiyoti, moddiy madaniyat, tuproqshunoslik, seysmologiya institutlari, bir qancha muzeylar va kutubxonalar shular jumlasiga kiradi. Akademianing bu yerga 375 yirik olimlari va xodimlari ko'chib keldilar. O'zbekistonlik olimlar ko'chib kelgan yirik olimlar bilan yaqin aloqa bog'ladilar, respublikamizda mavjud bo'lgan va ko'chirib keltirilgan ilmiy muassasalarining tadqiqot yo`nalishi qayta ko'rib chiqilshi hamda urush talablariga moslab o`zgartirilishi zarur edi. Akademiya azolari o'z faoliyatlarini ishlab chiqarishga qarab yo`naltirishi zarur edi. Olimlar o'zlarining asosiy e'tiborini mudofaa sanoati uchun zarur bo'lgan tabiiy resurslarni izlab topish va ulardan foydalanishni tashkil etishga qaratdilar. Geolog olim H. M. Abdullayev va boshqalarning tadqiqotlari natijasida qalay, volfram, molibden, o'tga chidamli minerallar, nodir metallar va boshqa turdag'i xomashyo konlari topildi va o'zlashtirildi. Natijada geologiya sohasi yana bir qadam oldinga siljidi, respublikaga zarur madanlar nisbatan ta'min etildi.

Sirdaryodagi Farhod GESning loyihasini ishlab chiqishda mashhur irrigatorlar A. N. Askochenskiy, V. V. Poslavitskiylar faol ishtirot etdilar, loyihachilarga akademiklar G. O. Grafito va B. Y. Vedeneyevlar qimmatli maslahatlar berdilar. Kimyogar olimlar neftning suvini ketkazish, oltingugurtdan tozalash, ko'mirni kokslash, paxta chiqindilaridan xalq xo'jaligida foydalanishning, etil spirti, soda, kislota olishning yangi samarali usullarini yaratdilar. Dori-darmonlar tayyorlash borasidagi tadqiqotlar natijasida aholi ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan turli xil dori-darmon ishlab chiqish yo'lga qo'yildi. Toshkentda farmatsevtika zavodi qurilib ishga tushirildi. Butunitifoq paxtachilik ilmiy-tadqiqot instituti paxtaning yangi navlarini yetishtirish sohasida samarali izlanishlar olib bordi. Seleksionerlar S. S. Kanash va A. I. Avtonomov boshchiligidida vilt kasalligini yuqtirmaydigan yangi navini yaratdilar. S. S. Kanash yaratgan S—460, L. V. Rumshevich yaratgan F—108 yuqori hosilli navlar, shuningdek, boshqa uzun tolali navlar paxtachilikning rivojida ulkan hissa bo'ldi. O'zbekistonda ekilib kelingan amerika paxta navlarini yangi navlar bilan almashtirish 1944-yilda tugallandi. Respublika olimlari Samarqandda joylashtirilgan Timiryazev nomidagi qishloq xo'jalik akademiyasi xodimlari bilan hamkorlikda g'o'za, bug'doy va qand lavlagini almashlab ekish usulini joriy etdilar, O'zbekiston sharoitida qand lavlagidan mo'l hosil olishga ko'maklashdilar. Urush yillarda gumanitar fanlar ham ancha rivojlandi. Yirik tarixchi, arxeolog, huquqshunos, sharqshunos, adabiyotshunos olimlar o'zbekistonlik hamkasblari bilan O'zbekiston xalqlari tarixi, madaniyati va adabiyotining muhim masalalarini ishlab chiqdilar. [2]

Rus olimi V. S. Struve, V. A. Shishkin, Y. E. Bertels, I. K. Dodonov, V. Y. Zohidov, H. Sh. Inoyatov, A. Y. Yakubovskiy, M. Y. Masson, S. P. Tolstov, Y. G. G'ulomov va boshqalar O'zbekistonning eng qadimgi va o'rta asrlar tarixi, moddiy madaniyati va ma'naviyati, O'rta Osiyo xalqlarining etnogenezi bo'yicha qator asarlar tayyorladilar. Ikki jiddan iborat "O'zbekiston xalqlari tarixi" ni tayyorlashga kirishildi. Yozuvchi Aleksey Tolstoy rahbarligida rus va o'zbek olimlari birgalikda "O'zbek adabiyoti tarixi" asarini yaratdilar.

1943 yilning kuzida O'zFAN negizida O'zbekiston Fanlar akademiyasi tashkil etildi. Uning tantanali ochilish marosimi 1943 yil 4 noyabrda bo'lib o'tdi. Respublika akademiyasining tashkil topishi O'zbekiston olimlari ilmiy faoliyatining yetukligidan, fanning turli sohalaridagi yirik muammolarni mustaqil hal eta olishidan dalolat berdi. Fanlar akademiyasining tashkil etilishi

urush davrida zaruriy holat hisoblanar edi. Sababi fanni rivojlantirmasdan g`alabaga erishish mushkul edi. O`zbekiston Fanlar akademiyasining asoschilari respublikaning yetuk olimlari, o`zbek fanining ko`plab yangi yo`nalishlarining tashabbuskorlari bo`ldi. T.N. birinchi prezident bo`ldi. Kari-Niyozov, atoqli matematik olim, O`zbekistonda fizika-matematika fanlari tarixiga oid tadqiqotlarning tashabbuskori, mashhur "Ulug`bek astronomiya maktabi" monografiyasi muallifi. Matematik olimlardan T. A. Sarimsakov va V. I. Romanovskiy, yozuvchilar Oybek va G`afur G`ulom, irrigatorlar A. N. Askochenskiy hamda V. V. Poslavskiy, etnograf olimlar M. A. Andreev, fizik olim S. U. Umarov, geology olim A. S. Uklonskiy, biolog olim R. R. Shreder. [3]

Fanlar akademiyasining ochilishi respublika hayotida muhim voqeа bo`ldi, buning sababi shunda ediki, ilm-fanning yanada taraqqiy etishi uchun mustahkam poydevor yaratildi. Qisqa fursatda yangi ilmiy muassasalar vujudga keldi. Til, adabiyot va tarix instituti bazasida Tarix va arxeologiya, Til va adabiyot instituti, Sharqshunoslik instituti, Iqtisodiyot, Matematika va mexanika hamda Tuproqshunoslik, Fizika-texnika instituti hamda shu kabi samarali laboratoriylar barpo etildi. 1945-yilga kelib Fanlar akademiyasi tarkibida bu vaqtida 23 ta ilmiy muassasa, shu bilan birga, 2 ta ilmiy tadqiqot institutlari, 2 ta jihozlangan laboratoriya, tajriba uchun mo`ljallangan stansiyalari faoliyat ko`rsatdi. O`zbekiston Fanlar akademiyasining uch faxriy a`zosi, 15 haqiqiy a`zosi, 20 muhbir a`zolari hamda 1265 ilmiy xodimi, shu jumladan, 54 ta fan doktori va 172 ta fan nomzodi ilmiy tadqiqot faoliyatlarini yuritishgan edi. Olimlar safida fizika-matematika fanlari doktorlari T. A. Sarimsoqov va V. I. Romanovskiy, geolog olim H. M. Abdullayev, fizik olim S. U. Umarov, faylasuf olim I. Mo`minov, adib S. Ayniy, yozuvchi Oybek, iste`dodli shoir G`. G`ulom kabilar faoliyatini ko`rish mumkin edi. Sharqshunoslik instituti olimlarining Sharq qo`lyozmalarini o`rganish asosida tayyorlagan fors, arab va turkiy tillarda yozilgan qo`lyozmalar to`plami jahondagi eng boy to`plamlardan biri bo`lib qoldi. Ushbu to`plam uch jiddan iborat bo`lib, ularda 300 ga yaqin qo`lyozma tavsiflab va ilmiy jihatdan baholab berildi. 1944-yilda O`zFA Prezidiumida aspirantura tashkil etildi va o`sha yili 60 kishi, shu jumladan, 41 o`zbeklar qabul qilingan edi. Natijada olimlarning kattagina guruhi vujudga keldi.

1944-yili Akademiya maxsus institutlarida jami: 2 ta doktorlik, 17 ta nomzodlik dissertatsiyalari yoqlandi. Urush yillarda o`zbekistonlik olimlar mingdan ortiq ilmiy ishlarni bajardilar, ularning ko`pchiligi xalq xo`jalik hamda mudofaa ahamiyatiga ega bo`ldi. O`zbekiston xalq ta`limi, jumladan, oliy o`quv yurtlari og`ir sinovlardan o`tdi. Ko`pchilik professor-o`qituvchilar shu bilan birga, talabalar frontga safarbar etildi. Samarqand kooperativ instituti bilan Toshkent moliyaiqtisodiyot instituti, Toshkent hamda Samarqand tibbiyot institutlari, O`zbek hamda O`rta Osiyo davlat universitetlari birlashtirilgan edi. Ularning bo`shagan binolariga harbiy muassasalar, gospitallar joylashtirilgan edi. O`zlarining professor-o`qituvchilar bilan birgalikda ko`chirib keltirilgan oliy o`quv yurtlarining faoliyati respublikada oliy ta`limning yanada ko`proq rivojlanishiga ijobiy ta`sir etdi. Moskva hamda leningraddan kelgan olimlar talabalarga yangi tashkil etilgan kurslar bo`yicha ma`ruzalar o`qidilar, mahalliy millat vakillaridan ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashga ko`mak berdilar, yangi mutaxassislik sohalari bo`yicha kadrlar tayyorlash yo`lga qo`yildi. Ushbu olimlar xalq xo`jalik va harbiy ahamiyatga molik mavzularda tadqiqot ishlarini uysushtirib turdilar. Toshkent sanoat instituti ilmiy jamoasi azolari, Bekobodda metallurgiya zavodini qurish hamda mis va boshqa shu kabi mahalliy rudalarni eritish usullarini ishlab chiqish, metallar korroziyasiga qarshi kurashning samarali va foydali yo`llarini izlash, yangi fabrikalar O`zbekiston hukumati oliy o`quv yurtlaridagi qiyinchiliklarni bartaraf etish, moddiy ba`zasini mustahkamlash, o`qituvchilar bilan ta`minlash borasidagi ishlarga yordam berdi.

O`zbek moylarini suvsizlantirish borasida hamda oltingugurtdan tozalash usuli yaratildi. Mahalliy xomashyodan bir qator yangi bog`lovchilar taklif qilindi. Dori ishlab chiqarish sohasidagi ishlari yuqori natijalarga olib keldi. Buning asnosida, O`zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi S. Yunusov boshchiligidagi alkaloid o`simliklar kam dorivor moddalar olish maqsadida o`rganib chiqildi. SADU kimyo fakultetlarida anestetik efir, kalsiy xlorid, shuningdek, kofein, dori

vositasi-streptotsid, sulfid, nikotin kislotasi ishlab chiqarish amalga oshirildi. Toshkent farmatsevtika instituti xodimlari tomonidan mahalliy xomashyodan 15 dona yangi dori vositasi ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi. [4]

Respublika byudjeti oliv va o‘rta malakali mutaxassislar tayyorlashga katta mablag’ sarf qilishni ko‘zda tutadi. Bu soha uchun ajratiladigan mablag’ning miqdori 1944 yilgiga qaraganda 24 million 400 ming so‘m yoki 29,1 protsent oshadi va o‘quchilar sonini 9.091 kishiga oshirishni taъminlaydi. Ilmiy-tekshirish muassasalariga 31 million 800 ming so‘m ajratilgandir. 1945 yilda sanъatga 24 million so‘m ajratildi, shu blan birga, respublika teatrlarining xususiy daromadlari ham ancha o‘sadi. [5]

Urush yillarida ayol xodimlar ham ilm-fan sohasida katta jasoratlarni ko`rsatdi. Jumladan, “Vatan sharafi uchun gazetasining 1945-yil 25-oktabrda chiqqan sonida “Olim qiz” nomli maqola beriladi. Quyida ushbu maqoladan parcha keltiramiz: Sorajon Yusupova Toshkent viloyatida joylashgan medtexnikumining ximiya-farmatsevtlik bo‘limini tamomlagandan keyin respublika hukumati uni Moskva universitetiga yuborgan edi. Yusupova ko`p hamda chidam bilan tahsil oldi. U universitetning oxirgi kursini Toshkentda I daraja diplom bilan bitirdi. Akademik Fersmanning maslahati bilan Sorajon Fanlar akademiyasining tuproqni o‘rganish instituti aspiranturasiga kirdi. Aspiranturada o‘qiyotgan vaqtidayoq Sorajon O‘rta Osiyo tuprog’ining turli xususiyatlari haqida 6 ilmiy asar bostirdi. Har yili yozda u qidirish partiyalari bilan O‘rta Osiyoga keladi. Olima o‘zining kandidatlik dissertatsiyasi uchun O‘zbekiston tuprog’ining temasini olgan edi. Sorajon o‘tga chidamli va pishiq loying konini topishga muvaffaq bo‘ldi. Uning topgan tuproqlari hozir zavodlarda va meditsinada keng miqyosda ishlatalmoqda. Sorajon Fanlar akademiyasining O‘zbekiston filialida 4 yil ishladi. U bu joyda birinchi rentgen-mineralogiya laboratoriyasini tuzdi, bir necha yordamchilar tayyorladi, ko‘pgina tajriba materiallari to‘pladi va yana Moskvaga o‘qishga jo‘nadi. Yusupova hozir tanilgan olim. Sorajon Yusupova hozir O‘rta Osiyo tuproqlarining kelib chiqishini o‘rganmoqda. Tez kunlarda u geologiya-mineralogiya fanlari doktori ilmiy unvoni olish uchun dissertatsiya yoqlaydi [6]

Foydalanimgan adabiyotlar

1. Журнал Правда Востока.1941.28 июня
2. Q. Usmonov. M. Sodiqov. O‘zbekiston tarixi.(1917-1991-yillar). Toshkent 2010-yil. 157-156-bet.
3. Журнал Правда Востока. 1943. 5 ноября.
4. Журнал Правда Востока.1942. 28 августа.
5. Rustambek Shamsutdinov., Ikkinci jahon urushi front va gazetalari., Ikkinci nashr. Toshkent., 2017.,5-bet 276-bet
6. «ВАТАН ШАРАФИ УЧУН».,1945 ЙИЛ 25-октябр. №79 (276).